ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARARO ALOQADORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Israilov Suxrob Atakulovich
Zarmed universiteti "Muhandislik kommunikatsiyasi" kafedrasi dotsenti
Ermamatova Maftuna Ermamatovna
Samarqand davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi
Ma'rufova Durdona Ozodovna
Samarqand davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak iqtisodchilarni tayyorlashda fanlararo bog'lanish muammosini hal qilish, xorijiy olimlar tahlili, iqtisodiy bilim berish omillari, talabalarga bilim berish kompetentining tuzilishi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *fanlararo bog'lanish, iqtisodiy bilim berish omillari, talabalarga bilim berish kompetenti, kompetensiya, iqtisodiy bilim.*

Аннотация. *В данной статье представлено решение проблемы междисциплинарности в подготовке будущих экономистов, анализ зарубежных ученых, факторы передачи экономических знаний, структура компетенции передачи знаний студентам.*

Ключевые слова: *междисциплинарность, факторы экономического образования, компетентность студентов, компетентность, экономическое образование.*

Annotation. *This article presents a solution to the problem of interdisciplinarity in the training of future economists, an analysis of foreign scientists, factors for transferring economic knowledge, and the structure of competence for transferring knowledge to students.*


Key words: *interdisciplinarity, economic education factors, students' competence, competence, economic education.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida "o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash" kabi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.

Yangi oliy ta’lim tizimining yuzaga kelishida fanlararo bog‘lanish muammosini amalga oshirishda o‘sha davrning mashhur maorif xodimi A.V.Lunacharskiy haqiqiy fanga oid bilimlar, o‘qitishning mehnat bilan bog‘lanishi, politexnik tarbiyaning aqliy mehnat, jismoniy, ahloqiy va estetik tarbiya bilan birga olib borilishi uchun kurashgan. Iqtisodiy-matematik tsikl fanlarini o‘qitishda fanlararo bog‘lanish g‘oyasiga kelsak, u o‘tgan asrning 30 yillarida, o‘qitishning sinf-dars tizimi yana qaytib kelganida rivojlandi. Uning fikricha o‘quv fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘qitish g‘oyalari puxta o‘ylangan holda o‘quv dasturlarida aks etishi kerak. U aniq misollarda fanlararo bog‘lanishlarning ta’sirini ochib berdi. Ular fanlararo bog‘lanish bilish faoliyatini rag‘batlantirishini, talabalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam berishini, fanning turli sohalarida fikrlash doirasini kengaytirishini ta’kidlab o‘tdi.

Elektron ta’lim muhiti — bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish uchun yaratilgan virtual muhit. Bu muhit talabalarga bilim olish, o‘rganganlarini mustahkamlash, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Elektron ta’lim muhiti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:



1-rasm. Elektron ta’lim muhitini tarkibiy qismlari

Umuman olganda, mazkur muammoning tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisod-matematik turkumdagi fanlararo bog‘lanishini tizimli va rejaga asosan amalga oshirish, bu fanlarni o‘qitish jarayonining mazmunini qurishga hamda umumiy tashkil qilish konstruktiv yondashuvlardan biri ekanligi aniqlandi. Adabiyotlarning tahlil shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy fanning umumiy tasnifi insoniyat bilishining uchta asosiy ob’ektlari – iqtisod, statistika va ekonometrika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni aks ettiradi va ular mos ravishda voqelikning real ob’yektlari haqidagi bilimlarni hosil qiladigan va zamonaviy fanning asosiy tarmoqlarida iqtisodiyot, statistika va ekonometrika fanlarini yuzaga keltiradi.

Shu bois zamonaviy dasturiy vositalarni yaratish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish hozirgi kunda ta’lim tizimini takomillashtirishning dolzarb muammosiga aylanmoqda. Bu borada elektron o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish va ularni dars jarayonida qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Келбакиани В.Б. Межпредметные связи в естественно-математической и педагогической подготовке учителей. − Тбилиси: Ганетлеба, 1987. – 291 с.

2. Коменский. Я.А.Избранные педагогические произведения. – М., 1963. – 175 б.

3. M.M.Nafasov. “Ta‘limiy mobil ilovalarni yaratish texnologiyasi va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. 2023 y.

4. Крупская Н.К. Верзилин Н.М., Общая методика преподавания биологии. Учебник для студентов биол. фак. пед. ин-тов. Изд. 3-е. − М.: Просвещение, 1976..

5. Ишкова Л.В. Методическая система осуществления связей физики с математикой в учебном процессе подготовительного отделения пединститута.: Автореф. ... дис. канд. пед. наук. − М., 1980. − 16 с.

6. Komiljonova.G.N. Fanlararo bog‘lanishlar asosida talabalarni bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish // Qo‘qon universitet xabarnomasi. Qo‘qon, 2023. -№9. B. 187-192.

7. Xasanov A.A. O‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. - № 10. – B. 9.

8. Suropov B.M. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari uchun uslubiy qo‘llanma.-Qarshi. “Delfin”,-2017.-218 b.

9. Соколова О.И. Подготовка преподавателей к использованию информационно образовательной среды в профессиональной деятельности. Вестник РУДН, серия Информатизация образования, 2014, № 1. Стр. 127-132.